

## **O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQILLIKDAN OLDINGI VA KEYING SIYOSIY HAYOTI**

Fayziyev Ibrohim Shuhratovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Gumanitar fanlar fakulteti Fakultetlararo  
ijtimoiy fanlar kafedrası o`qituvchisi

Toshpo`latov Abdulaziz Quvondiq o`g`li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti  
Pedagogika va psixologiya yo`nalishi talabasi

### **Annotatsiya**

Bu maqolada O`zbekistonning sho`rolar davridagi siyosiy va ijtimoiy hayoti yoritilgan. Maqolaning asosiy maqsadi O`zbekistonning o`tmishdagi hayotiga nazar solish va bu ma`lumotlarni o`quvchiga taqdim etishdan iborat.

**Tayanch so`zlar:** qatag`on siyosati, paxta ishi, "xalq dushmani", Milliy Ittihad, Milliy Istiqlol, kompartiya.

**Kirish.** O`zbekiston Respublikasi 1924-yilda Sobiq sovet ittifoqi tarkibiga kiritilgan va shu kundan boshlab O`zbekiston Respublikasi O`zbekiston Sotsialistik Sovet Respublikasi deb yuritila boshlandi.O`zbekiston Respublikasining sho`rolar tomonidan bosib olinishi o`zbek aholisiga juda katta zarba bo`ldi.Sho`rolar davrida o`zbek millati ruhiy va ma`naviy tomondan ezildi.O`zbek millati tomonidan nishonlanib kelingan milliy bayramlar va o`zbek urf-odatları asta-sekin unutila boshlandi.O`zbeklar uchun katta amaldagi ishlarda ishlash juda mashaqqatli jarayon bo`lgan.Chunki katta amalda ishlaydigan o`zbeklarning ko`p miqdori yoki "quloq"qilinar yoki "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olinar edi.Bunday soxta va uydurma nom bilan umr kechirish oson emas edi. Nafaqat, ularning o`zlari balki ularning farzandları xalq dushmanining farzandi deb haqoratlanar edi.Bu holat o`zbek millati uchun sharmandali va ayanchli holat edi. Bundan tashqari o`zbek millatini "Paxta ishi" o`zbek ishi,qatag`on siyosati va boshqa ayanchli holat kutib turgan edi. Ammo matonatli o`zbek millati hamma mashaqqatli jarayonlarni mardonavor bosib o`tdi va 1991-yil 31-avgust kuni o`z mustaqilligiga erishdi.Shundan so`ng O`zbekiston Respublikasi hududida aqlga sig`mas darajadagi o`zgarishlar boshlandi.

Birinchi bo`lib 1989-yil 21-oktabr kuni O`zbek tiliga davlat tili maqomi berildi va asta-sekin mustaqil davlatlarga xos ravishda o`zining davlat ramzlarini, madhiyasini va o`z Konstitutsiyasini qabul qildi. Bu jarayonlardan so`ng o`zbek millatining yashashga va mustaqillikka bo`lgan ishtiyoqi ortib bordi.

O`zbekiston hududida "Qatag`on siyosati" juda shavqatsiz ravishda olib borilgan. Qatag`on siyosati 1936-1938-yillar oralig`ida sodir bo`lgan.Bu yillar davomida taxminan 100 mingdan ortiq xalq arboblari va ma`rifatparvar ziyolilar qatl etildi.Qatag`on siyosatining asosiy maqsadi o`zbek millatini ozodlikka da`vat etayotgan

ma'rifatparvar davlat arboblari yo'q qilishdan iborat bo'lgan bizning buyuk yozuvchilarimiz Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqori Abdurashidov va boshqa ko'plab o'zbek millatining buyuk teraklari ildizi bilan qo'porib tashlandi. Ularning noyob istiqloлга chorlovchi she'rlari va asarlarini yo'q qilishga urinishlar bo'ldi. 1929-yil 5-noyabrda Toshkentda ma'rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 38 nafar kishi qamoqqa olindi. Oradan uncha ko'p vaqt o'tmay qamoqqa olinganlar soni 87 kishiga yetdi. Ularga "Milliy Ittihad" va "Milliy Istiqlol" tashkilotlarining a'zolari degan ayb qo'yildi. 1931-yil 25-aprelda Moskvada bo'lib o'tgan sud majlisida Munavvarqori boshchiligidagi millatning 15 nafar fidoyisi bo'lgan "Milliy Istiqlol" a'zolari otib o'ldirishga, qolgan 72 nafar kishi esa uzoq muddatli qamoq jazosiga mahkum etildi. O'zbek xalqining 15 nafar ma'rifatparvar ziyolilari Moskva shahrida otib tashlandi. Deyarli hech bir fuqaro O'zbekistonga qaytib kela olmadi. Ularning jasdlari begona yurtda qolib ketdi. XX asr o'zbek ma'daniyatining 3 nafar yorqin yulduzlari - Fitrat, Cho'lpon va Abdulla Qodiriy bir kunda 1938-yil 4-oktabrida Toshkent shahri atrofida shavqatsizlarcha **otib** tashlandi. 1937-1938-yillarda soxta va uydirma ayblar bo'yicha O'zbekistonda 41000 nafardan ortiq kishi hibsga olinib, ulardan 37000 nafardan ko'prog'i jazolandi, 6920 nafar kishi esa otib o'ldirishga hukm qilindi. Ammo mustaqillikka erishganimizdan so'ng ularning xotiralarini abadiylashtirish maqsadida birinchi Prezidentimiz tomonidan juda ko'plab say-harakatlar amalga oshirildi va 2002-yil noyabr oyida ularning xotiralarisiga atab "Qatag'on qurbonlari xotirasi" nomli muzey tashkil etildi. Davlat ravnaqi va millat mustaqillig uchun kurash olib borgan bu ma'rifatparvar ziyolilar o'zbek millati xotirasida abadiy qoldi.

**Paxta ishi** - o'zbeklar uchun yana bir tarixiy fojeadir. Paxta ishi doirasida yuzlab hokimiyat tepasidagi siyosat arboblari qatl etilgan. Ularning ko'pchiligi asossiz ravishda tergov qilingan Andropov 1982-yil 16-noyabrda Sovet ittifoqi Markaziy komiteti birinchi kotibi etib saylangandan so'ng Rossiya hududida korrupsiyaga qarshi kurash chora tadbirlarini boshlab yuboradi. Bu chora tadbirlar nafaqat Rossiyada balki O'zbekistonda ham amalga oshirildi. 1983-yilning fevral oyida SSSRning oliy rahbariy organi KPSS MK siyosiy byurosi "O'zbekiston paxta sanoatidagi suiste'molliklar haqida qaror qabul qildi. Shundan so'ng Telman Gollyan va Nikolay Ivanov boshchiligidagi tergov komissiyasi O'zbekistonga yuboriladi. O'zbekiston Markaziy Kometeti 1-kotibi Inomjon Usmonxo'jayev, Markaz Qo'mita kotiblari Ra'no Abdullayeva, Oqiljon Salimov, Erejeb Aytmurodovlar poraxo'rlik va boshqa ishlarda ayblanib qamoqqa olindi. 1985-1990-yillarda O'zbekistonda paxta ishi degan uydirma bo'yicha jami 40 000 kishi tergov qilindi, ularning aksariyati tergov izalyatorlarida prokuror sanksiyalarisiz o'tirdi, 5000 nafar kishi esa soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi. Qatag'on siyosatini amalga oshirishda Markaz rahbariyati va vakillaridan tashqari O'zbekistonning o'sha paytdagi siyosiy rahbariyati xalqimiz orasidan chiqqan hamda tergovchilar bilan hamkorlik qilgan va ularning g'arazli ishlariga ko'maklashgan ayrim qo'rqqoq xoinlar

ham faollk ko'rsatdi. Bu tarixning eng ayanchli va achchiq haqiqati. Tergovchilar tomonidan ayblanuvchilarga qonunga zid ravishda jismoniy va ma'naviy jarohatlarlar yetkazildi va ularning oila a'zolari ham qamoqqa olinadi va ular bilan ham tergov jarayonlari olib boriladi. Ko'plab aybsiz amaldorlar tazyiqi ostida qilmagan jinoyatlarini bo'yniga olishga majbur bo'ladi. Bu holat o'zbek xalqini yana bir bor yerga urish holati edi. Mustaqillikdan so'ng "Paxta ishi" natijasida asossiz qamalgan yurtdoshlarimiz ozod etildi.

**Xulosa. Islom Karimov** – buyuk siyosat arbobi. Shu inson tufayli O'zbekiston o'z mustaqilligiga va o'zining buyuk o'chmas yutuqlariga erishdi. Islom Karimov 1938-yil 30-yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tavallud topgan. O'z ish faoliyatini 1960-yilda Toshkent Qishloq Xo'jalik Mashinasozligi zavodida boshlagan o'z siyosiy faoliyati esa 1989-yilning iyunida boshlagan. U inson shu yili O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi etib tayinlangan. Biroz muddat shu lavozimda faoliyat yuritgandan so'ng 1990-yil 24-mart kuni O'zbekiston SSSR Oliy Kengashining sessiyasida O'zbekiston SSSR Prezidenti etib saylandi. 1991-yil 29-dekabrda o'tkazilgan umumxalq saylovida Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining qonuniy Prezidenti etib saylandi. Bu voqeadan so'ng I.A. Karimov O'zbekistonni mustaqil demokratik davlatga aylantirish maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirdi. 1991-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya inson haq-huquqlarini inobatga olgan holatda tuzib chiqildi. Davlat ramzlari qabul qilindi. I.A. Karimov aholi turmush tarzini tubdan isloh etish ishlarini olib bordi. Ular uchun zamonaviy va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan yashash sharoitlarini yaratib berdi. Sho'rolar hukumati tomonidan asossiz ravishda qamoqqa olinganlar ozod etildi va qatl ettirilgan xotirasi abadiylashtirildi. I. Karimov 1991-yildan to 2016-yilgacha O'zbekistonni buyuk davlatlar sirasiga kirgiza oldi va O'zbekiston dunyodagi eng xavfsiz va rivojlangan davlat bo'lib qoldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. F. A. IBROHIMOV, I. SH. FAYZIYEV. Shaxs ma'naviy-ruhiy begonalashuvining shakllari (pp. 591-599) <http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5108.%20591-599.pdf>
2. F. A. IBROHIMOV, I. SH. FAYZIYEV
3. Shaxs ma'naviy-ruhiy begonalashuvining shakllari (pp. 591-599)
4. <http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-108.%20591-599.pdf>
5. Файзиев, И. Ш. (2020). Ўзбекистонда электрон ҳукумат: мавжуд имконият ва истиқболлар. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 232-240.
6. 10-sinf O'zbekiston tarixi (nashr 2017-yil)
7. Dunyo siyosat va jamiyat kitobi 8-nashr
8. O'zbekiston tarixi (1997-yil nashr)
9. O'zbekiston tarixi (2005-yil nashr)

10. O'zbekiston tarixi (1-kitob Jo'rayv.N)
11. O'zbekiston tarixi (2-kitob Jo'rayev.N)
12. O'zbekiston tarixi (3-qism)
13. O'zbekiston tarixi (2007-yil nashr)
14. O'zbekiston tarixi (2015-yil nashr)